
SAVOL BERING, JAVOB BERAMIZ



Savol bering, javob beramiz

Savol: Chorvachilik xo'jaliklariga xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qoramol, qo'y va echkilarga subsidiya ajratish uchun talab etiladigan hujjatlar haqida ma'lumot bersangiz

Javob: Subsidiya oluvchi xorijiy davlatdan nasldor qoramolni olib kelgandan so'ng tuman komissiyasiga subsidiya olish uchun ushbu Nizomning 10 — 12 bandlarida qo'yilgan talablarni hisobga olgan holda, «Agrosubsidiya» AT elektron tizimi orqali ariza bilan murojaat qiladi.

Arizaga quyidagi hujjatlarni ilova qiladi:

- xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qoramol, qo'y va echkining kelib chiqishini tasdiqlovchi hujjat nusxasi;
- xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qoramol, qo'y va echkini sotib olish bo'yicha tuzilgan oldi-sotdi shartnomasi va to'lov topshiriqnomasi nusxasi;
- bojxona yuk deklaratsiyasi nusxasi;
- xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qoramol, qo'y va echkilarning elektron identifikatsiya bazaga kiritilganligi.
- Subsidiya oluvchining arizasini ko'rib chiqish uchun to'lovlar undirilmaydi.

A. Toshpulatov - So'x tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish bosh yuriskonsulti

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-02-05 16:03:13